



Samarqand

2025-yil 16-oktabr, PAYSHANBA, 40 (2605)-son



t.me/samarkandnews_uz



www.samarkandnews.uz

21-oktabr — Tilimizga Davlat
tili maqomi berilgan kun

XALQ TILIDAN DAVLAT TILI SARI YUKSALGAN ONA TILIM

Xalq, millat, davlat taqdiriga befarq bo'lmagan har bir fuqaro o'z ona tili taraqqiyoti, jamiyatda tutgan o'rni, ma'naviy ahamiyati haqida o'ylab ko'rishi shubhasiz.

Davlat tili har bir mamlakatda avvalo, o'zaro muloqot vositasi, eng muhimi, qonun chiqarish, ijroiya va sud hokimiyatlarida ish yuritish uchun rasmiy jihatdan qabul qilingan til hisoblanadi. To'g'ri, ayrim federativ tizimdagi davlatlarda bir necha tillar ham davlat, ham rasmiy til sifatida qonuniy qabul qilingan.

Ona tilimiz o'tmishiga nazar solsak, yillar mobaynida tilimizning ijtimoiy hayotda qo'llanishi cheklanib qolganiga guvoh bo'lamiz. Til taraqqiyoti bilan bog'liq jarayonlar ona tilimizga ham salbiy ta'sir ko'rsatgan. Arab, fors tillari ta'sirida ba'zan ularning "soyasida qolgan" davrlari ham bo'ldi. Ayniqsa, Rossiya imperiyasi, so'ngra Sho'rular istibdodi davrida tilimiz taraqqiyotiga jiddiy jarohat yetkazildi. Oktabr to'ntarilishidan so'ng oddiy, rasmiy davralarda ham ona tilimizda so'zlash imkoniyatidan mahrum bo'ldik. Bu — alohida mavzu. Bugungi kunda mukammallik sari intilayotgan ona tilimiz Yangi O'zbekistonning davlat tilidir. Bunga erishuv oson bo'lmaganligini barcha his etib turibdi. Jadidlarimiz, fuzalalarimiz o'z davrida tilimizni o'zga tillar ta'siridan qutqarish, uning boy imkoniyatlarini qayta tiklash, tom ma'nodagi ma'naviy boylikka aylantirish uchun kurashganlar.

(Davomi 4-sahifada)



KO'HNA KENT yasharmoqda

18-oktabr — Samarqand shahri kuni sifatida katta shodiyonalar bilan nishonlanishiga odatlanganmiz. Butun dunyo Sharq gavhari, deya ta'riflaydigan bu muqaddas zamin bugun ham oroyishlar og'ushida o'z nomiga monand tarzda yangilanish, yasharish davrini o'tkazmoqda.

Shaharda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari uni navqironlik davriga

qaytarmoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi. Uch ming yillik tarixga ega ko'hna kent bugungacha bunday o'zgarishlar, yangilanishlar davrini ko'p bora boshdan kechirgan. Unga bugun shaharda bo'y cho'zib, yillar sil-silasiga guvoh bo'lib

kelayotgan betakror tarixiy obidalar asosdir. Ilm-ma'rifat, madaniyat rivoj topgan zaminda, albatta, mana shunday ulug'vor bunyodkorlik ishlari amalga oshadi.

(Davomi 4-sahifada)

JASORAT VA VATANGA SADOQAT MAKTABDAN BOSHLANADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi "O'quvchi-yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq yurtimizning har bir hududida "Jasorat maktablari" tashkil etilishi belgilangan.



O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining qaror ijrosini ta'minlashga qaratilgan qo'shma qaroriga asosan joriy o'quv yilidan boshlab har bir hududdagi bitta umumta'lim maktabida "Jasorat sinflari" tashkil etildi. Bundan ko'zlangan bosh maqsad — o'quvchi-yoshlarni harbiy-vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga hurmat, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalash, ularda harbiy xizmatga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shu bilan birga, bu tizim yoshlarni oliy harbiy va harbiylashtirilgan ta'lim muassasalariga o'qishga kirishga tayyorlashga xizmat qiladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etilayotgan "Jasorat sinflari"ga

26 nafar o'quvchi belgilangan tartibda o'qitilmoqda.

— Prezidentimiz topshirig'i bilan har bir hududda "Jasorat sinf"lari ish boshladi, — deydi maktab direktori Shodiya Musurmonova. — Ta'lim maskanimizda ham jasorat sinfi tashkil etildi. Unda shahar hududidagi maktablarning 4-sinfini bitirib 5-sinfiga o'tgan 171 nafar talabgardan 26 nafar o'quvchi imtihan natijalariga asosan saralab olindi. Ushbu o'quvchilarga alohida dastur asosida harbiy yo'nalishda ta'lim berilmoqda. Maktabda tashkil etilgan maxsus dala mashq maydonida ular jismoniy mashg'ulotlarni olib borishmoqda.

Mazkur maktabdagi "Jasorat sinfi" belgilangan talablarga mos tashkil etilganligi hamda o'tgan davr mobaynidagi faoliyati boshqalarga o'rnatib berilganligi bilan tizim rahbariyati tomonidan alohida e'tirof etib kelinmoqda. Ushbu sinfni tashkil etishdagi faolligi, tashkiliy ishlardagi fidoyiligi uchun maktab direktori Shodiya Musurmonova O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo'mondonining tegishli buyrug'iga asosan "Ma'naviyat a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

— O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo'mondonining e'tirofi zimmamda mas'uliyat hissini yanada oshirdi, — deydi Shodiya Musurmonova. — Bu maktabimiz jamoasining mehnati va fidoyiligi natijasi, deb bilaman. Yosh avlodni ma'naviy boyligimiz asosida ilm-ma'rifatli, vatanparvar va komil inson qilib tarbiyalash jamoamizning eng oliy vazifasidir. Biz ushbu yo'lda sidqidildan xizmat qilamiz.

Bekzod ERKINOV

SOCH — HUSN, JILO BERMOQ — SAN'AT

Umrida soch oldirish, uni zamonaviy usulda turmaklash maqsadida ushbu sohaning ustasi — sartaroshga murojaat etmagan erkak yoki ayol bo'lmasa kerak.

Sartaroshlik xalqimiz orasida qadimdan urfga kirgan eng talabgir kasblardan biri hisoblanadi. Hamshahrimiz Lutfillo Bakayev ana shunday ko'pchilik ishi tushadigan, ishi bitgach, ko'ngli xush tortadigan kasb sohiblaridan biridir.

— O'n olti yildan buyon shu kasb etagini tutgan holda ishlab kelmoqdaman, — deydi u. — Dastlab ustozim Aziz akadan tanlagan kasbim sirlarini o'rgandim. Bolaligimda soch, soqol olishdangina iborat, deb tushungan bugungi kasbim anchagina murakkab va hayot talablarini o'zida mujassam etgan ekan.

Uning shu gapida ham jon bor. Kasbining murakkabligi, hayot talablarini, mijozlar istagini o'zida jo etganligini yillar osha mahorati oshgani sari chin dildan tushunib yetdi. 2009-yilda ustozining oq fohitasini olib, mustaqil ish boshlagan yosh usta ko'p o'tmasdan talabchan mijozlar e'tiboriga tushdi. Oddiy soqol olish, boshni ustara bilan qirtishlash, yoshlar didiga mos "turmak"ni kashf etishda u o'ziga xos ish tutdi. Bir kunda sartaroshxonaga turli yosh, turli kasb, turli qarashdagi mijozlar tashrif buyurishini, ularning talabi turlicha bo'lishini hisobga olsak, faoliyatining ilk davri bo'lg'usi kasb ustasining o'ziga xos sinov davri bo'lganligini his etamiz.

Ko'l mahallasida tug'ilib-o'sgan yosh sartarosh Samarqandda uzoq ishlamadi. O'sha davr iqtisodiy

qiyinchiliklari bois yosh sartarosh Rossiyaga yo'l olib, Moskvada oddiy va ehtiyoj yuqori bo'lgan kasbini davom ettirdi. Bir kunda 50—60 nafar mijozga sifatli xizmat ko'rsatgan yosh sartarosh xorijda kasb-mahoratini tobora oshirdi. Undan

mijozlari asosan hamyurtlarimiz yoki qo'shni davlatlar fuqarolari bo'lganmi, deb so'raganimda, asosan mijozlarimning ko'pchiligini yevropaliklar tashkil etardi, degan javobni oldim.

Yosh sartaroshning mahorati oshishi, malakasi mukammallashtirishda Moskvadagi faoliyati muhim o'rin egalladi. Shu yerda kasbining yangi yo'nalishlari, ehtiyoj-talab usullarini mukammal ravishda o'rgandi.

2023-yilga qadar xorijda faoliyat yuritib, tajriba orttirgan, kasbining zamonaviy sirlarini o'rgangan Lutfillo usta shu davr ichida bir qator tanlovlarda qatnashib, g'oliblar safidan o'rin oldi. Kasb mahorati haqida dalolat beruvchi turli darajadagi sertifikatlar bu fikrning isbotidir.

Ayni paytda usta Lolazor mahallasi aholisiga beminnat xizmat ko'rsatmoqda. Kuniga 15—20 nafar mijozlar unga murojaat etishadi. Hozirga qadar uning xizmatidan qoniqmagani mijozlar uchramaganligini mahalla ahli alohida hurmat bilan tilga olishadi. Negaki, u har bir mijozning talabiga ko'ra xizmat ko'rsatishni o'zining kasbiy burchi sifatida ishga kirishadi.

Lutfillo Bakayev 15 nafar yosh, bo'lg'usi sartaroshning ustosi hamdir. Ularga bor bilimi, mahoratini keng tushuntirgan holda ish jarayonida kasb sirlarini qunt bilan o'rgatmoqda.

Quvondiq XALILOV



AN'ANALAR QADRLI, LEKIN ULARDA HAM ME'YOR BO'LISHI KERAK

So'nggi yillarda yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar har sohada inson manfaatini ustuvor qiymat sifatida belgilab berdi. Prezidentimiz rahbarligidagi "Inson qadri uchun" tamoyili asosidagi siyosatning bosh maqsadi — fuqarolarimiz hayot sifati va turmush darajasini oshirish, ortiqcha qiyinchilik hamda sarf-xarajatlarni kamaytirishdan iborat.

Vazirlar Mahkamasi tomonidan joriy yilning 16-sentyabrida qabul qilingan "Umumiy ovqatlanish korxonalarida hosil bo'ladigan oziq-ovqat chiqindilaridan samarali foydalanish va ularning atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish hamda ortiqcha isrofgarchiliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori shu maqsadga qaratilgandir.

Ushbu qaror bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2019-yil 14-sentabrda qabul qilingan "To'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlar o'tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qo'shma qarorining mustahkamlanishi jamiyatimizda yillar davomida shakllanib kelgan, ammo, bugungi kunda iqtisodiy hamda ma'naviy jihatdan og'ir yukka aylangan ayrim rasm-rusumlarni tartibga solishga qaratilgan muhim qadam bo'ldi.

VATANIMIZNING ISTIQBOLINI YOSHLAR BELGILAYDI

Sog'lom avlod jamiyat taraqqiyotining asosidir. Shu bois yurtimizda mustaqillikning ilk yillaridanoq ham jismonan, ham ma'nan yetuk avlodni tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Sog'lom avlod deganda, avvalo, sog'lom nasl, jismonan baquvvat, iymon-e'tiqodi butun, bilimli, ma'naviyati yuksak, mard va jasur, vatanparvar avlod tushuniladi. Yurtimizning ertangi kuni, taraqqiyoti uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir yoshlar Vatanimiz rivoji yo'lidagi ezgu sa'y-harakatlarni amalga oshiradigan, ro'yobga chiqaradigan qudratli kuchdir. Aynan bugun maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maktablarda ta'lim-tarbiya olib voyaga yetayotgan o'g'il-qizlarimiz yurtning kelajagini belgilaydi.

Shu sababli, bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishni kengaytirish, ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maktablarning to'laqonli faoliyati uchun qulay sharoitlarni yaratish oldimizda turgan eng dolzarb vazifalardan hisoblanadi.



Prezidentimizning: "Vatanimizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz — yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdan iborat", degan so'zlari yurtimizning barcha pedagoglari zimmasiga ulkan ishonch va ma'suliyat yuklaydi. Chunki, kelajak tamal toshi bugungi bog'cha va maktablarda qo'yilmoqda. Shundan kelib chiqib, bugun maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning ta'lim-tarbiya olishlari uchun yaratib berilayotga shart-sharoitlar qadrlini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi.

Yurtimizda bu borada amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar zamirida sog'lom, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mamlakat taraqqiyoti yo'lida maqsadga intiluvchi, serg'ayrat barkamol avlodni tarbiyalashdek ezgu maqsad mujassamlangan. Shunday ekan, Vatanimizning ertangi kuni va istiqbolini belgilaydigan yosh avlodni munosib darajada tarbiyalash, ularga sifati ta'lim berish bizning eng muhim vazifamiz ekanligini doimo yodda tutishimiz zarur. Zero, aynan ma'rifatli, yuksak axloqli, vatanparvar yoshlar ertamizning haqiqiy me'morlaridir.

Baxtigul ASROROVA,
6-DMTT direktori,
shahar Kengashi deputati

Xo'sh, qo'shma qarorda nimalar deyilgandi? Ushbu hujjatga ko'ra, xalqimizga ortiqcha yuk bo'layotgan, maqsadsiz xarajat talab qiluvchi an'analar, ya'ni, "kuyov navkari", "chorlar", "ota ko'rdi", "sep yoydi", shuningdek, motam marosimlaridagi "yetti", "payshanba", "yakshanba", "vigirma", "qirq", "yil oshi", "pul tarqatish", "mato ulashish" kabi rasm-rusumlarni o'tkazish ta'qiqlangan. Shu bilan birga to'y va ma'rakalar belgilangan cheklovlar doirasida, ya'ni, oilaviy tadbirlar 200 nafargacha, osh marosimlari va qo'shaloq to'ylar 250 nafargacha, qo'shaloq to'y oshlari 300 nafargacha ishtirokchi bilan o'tkazilishi belgilangan.

Bu cheklovlar xalqimiz an'analariga hech qanday putur yetkazmaydi. Aksincha, ularni tartibga solish, ma'naviy poklanish va iqtisodiy barqarorlik sari tashlangan muhim qadamdir.

Har bir oila jamiyatning asosidir. Agar, oila iqtisodi mustahkam bo'lsa, jamiyat ham barqaror bo'ladi. Ammo, so'nggi yillarda to'y va ma'rakalarda ortiqcha isrof, keraksiz raqobat va ko'z-ko'z qilish holatlari ko'paygani kuzatilmoqda.

Ko'plab oilalar to'ydan keyin qargza botmoqda. Yoshlar uy-joy yoki ta'lim uchun sarflanishi mumkin bo'lgan mablag'ni bezak va an'analarga yo'naltirmoqda. Bu holat nafaqat iqtisodiy, balki, ma'naviy jihatdan ham salbiy oqibatlarga olib keladi.

Xalqimiz mehmondostligi, saxiyligi va olijanoblighi bilan dunyoga tanilgan. To'y

va ma'rakalarimiz ana shu fazilatlarining ifodasi bo'lib kelgan. Biroq, vaqt o'tishi bilan ayrim rasm-rusumlar milliy an'anadan ko'ra "ishora" yoki "maqтанish vositasi"ga aylanib qoldi.

Ko'p hollarda "odamlar nima deydi", degan fikr ayrim oilalarni og'ir ahvolda solmoqda. Qimmat restoranlar, yuzlab mehmonlar va ortiqcha tantanalar iqtisodiy imkoniyatdan ortiq bo'lgan holatlarni keltirib chiqarmoqda. Shunday ekan, an'analarni qadrlab, ularni me'yor bilan amalga oshirish zamon talabi. Qaror ana shu me'yorni belgilab berdi — oddiylik, samimiyat va shukronalikni ustuvor qiymat sifatida mustahkamladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkin, bugun har birimiz — deputat, mahalla raisi yoki oddiy fuqaro bo'lsak ham bu qarorni to'laqonli anglab, uni hayotga tatbiq etishda namuna bo'lishimiz zarur.

Ortiqcha isrofnig oldi olinsa, oila iqtisodi mustahkamlanadi, kamtarona to'y va ma'rakalar esa xalqimiz ma'naviy yuksalishining belgisiga aylanadi.

Keling, qadriyatlarimizni asrab-avaylaylik, lekin zamon talabiga mos tartib bilan. Moddiy emas, ma'naviy boylik ustuvor bo'lsin degan tamoyilni hayotimizga singdiraylik.

Bu qaror orqali yurtimizda nafaqat iqtisodiy yengillik, balki ma'naviy sog'lom muhit qaror topishiga ishonaman.

Olim PARDAYEV,
shahar Kengashi deputati



AHOLINI RO'YXATGA OLISH — SHUNCHAKI RAQAMLAR YIG'ISH EMAS...

Yurtimizda 2026-yilning 15-yanvaridan 28-fevraligacha aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbiri o'tkaziladi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentyabrdagi "Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish to'g'risida"gi farmonida belgilandi.

Bu muhim jarayon mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni to'g'ri yo'naltirish, davlat siyosati va kelgusi dasturlarni aniq raqamlar asosida rejalashtirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish — bu shunchaki raqamlar yig'ish emas, balki, mamlakat taraqqiyotining aniq manzarasini belgilaydigan muhim ko'zgudir. U orqali davlatimiz har bir hududning demografik, iqtisodiy va ijtimoiy holatini chuqur tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Yurtimizda oxirgi umummilliy aholi ro'yxati 1989-yilda o'tkazilgan edi. Oradan o'tgan 35 yil davomida yurtimizda katta o'zgarishlar ro'y berdi: aholi soni 38 million nafarga yaqinlashdi, yangi shahar va qishloqlar barpo etildi, ta'lim, ish bilan bandlik, migratsiya va oilaviy munosabatlar tizimi yangi bosqichga ko'tarildi. Shu bois bugungi kunda mamlakatda aniq va yangilangan ma'lumotlar bazasiga katta ehtiyoj bor.

Ro'yxatga olish tadbiri ikki bosqichda amalga oshiriladi. Dastlabki 17 kun davomida fuqarolar "census.stat.uz" portal orqali OneID yoki JShShIR orqali onlayn ro'yxatdan o'tishlari mumkin bo'ladi. Bu raqamli tizim aholining vaqtini tejaydi, ma'lumotlar to'g'ridan-to'g'ri davlat bazasiga kiritiladi.

Keyingi bosqichda esa "mahalla yettilligi" va mahalliy faollar uy-ma'uy yurib ma'lumot yig'ishadi. Bu usul internet imkoniyati cheklangan hududlarda ham barcha fuqarolarni qamrab olish imkonini beradi.

Qolaversa, ro'yxatga olishning qish mavsumiga belgilangani ham qulay yechimdir. Bu davrda aholi ko'p harakatlanmaydi, qishloq xo'jaligida mavsumiy ishlar kamayadi. Demak, fermerlar va dehqonlar ham bu jarayonda faol qatnashish imkoniga

HUSHYORLIKKA CHORLOV

Sayyoramizda turli ko'rinishdagi tabiiy ofatlar soni tobora oshib bormoqda.

Inson hayotiga, mamlakat iqtisodiyotiga favqulodda vaziyatlar jiddiy zarar yetkazmoqda. Iqlim o'zgarishi, turli texnogen holatlarning kuchayishi oqibatida butun insoniyat oldiga tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish vazifasini ko'ndalang qilib qo'ymoqda. Bu borada xalqaro miqyosdagi amaliy harakatlar kengayib bormoqda. 1989-yilda BMT Bosh Assambleyasining 44-sessiyasida qabul qilingan rezolyutsiyaga muvofiq 1990—1999-yillar tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish o'n yilligi, deb e'lon qilinishi bilan harakatlar yo'nalishi belgilangan edi. Shu tariqa, 2016-yilga qadar har yili oktabr oyining ikkinchi chorshanbasida Xalqaro tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish kunini nishonlash yo'lga qo'yilgan edi. BMT Bosh Assambleyasining 2017-yil 17-yanvardagi rezolyutsiyasiga ko'ra har yili bir kunda — 13-oktabrda bu sanani nishonlash rasman e'lon qilindi.

BMTga a'zo davlatlar, xalqaro tashkilotlarga turli halokatlarning oldini olish, ularning xavfini kamaytirish

bo'yicha dasturiy rejaralar ishlab chiqarish, imkon qadar talafotlarga yo'l qo'ymaslik choralarni ko'rish tavsiya etiladi. Tashkilotning tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish Xalqaro strategiyasi, Xalqaro Fuqaro muhofazasi tashkiloti, Osiyo tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish markazi bu masala bilan bevosita shug'ullanadi. Osiyo tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish markazi qit'amizda tabiiy ofatlarning oldini olish maqsadida 1998-yilda tashkil etilgan. Bu tashkilotga mustaqil O'zbekiston ham a'zodir. Yurtimizda favqulodda vaziyatlar, tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish vazifasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi hamda ushbu tizimdagi tashkilotlar zimmasiga yuklatilgan. Aholi o'rtasida tayyorgarlikni kuchaytirish, hushyorlikni oshirish borasida tizimli faoliyat yo'lga qo'yilgan.

Baxtiyor MIRZOQOBILOV,
viloyat FVB Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi katta o'qituvchisi,
Alisher BOZORBOYEV,
markaz o'qituvchisi

MADANIYATLARARO MULOQOT VOSITASI

Global dunyoda ingliz tili tobora madaniyatlararo muloqotning eng muhim omiliga aylanib bormoqda. Shu bois, bugun ingliz tilini o'rganishda madaniyatlararo muloqot tushunchasini shakllantirish zaruriyati paydo bo'ldi.

Madaniyatlararo muloqot — bu turli madaniyatlar o'rtasida samarali va to'g'ri muloqot o'rnatish san'ati. Institutimizda ingliz tilini o'qitish jarayonida madaniyatlararo muloqotni shakllantirish bo'yicha yangi yondashuvlar amalga oshirilmoqda. Madaniyatlararo muloqotni ingliz tili ta'limida o'qitish, institut talabalari uchun nafaqat tilni o'rganish, balki, global miqyosda muvaffaqiyatli muloqot qilish imkoniyatini yaratadi. Jarayonda talabalar faqatgina til qoidalari va grammatika bilan cheklanmasdan, ingliz tilida so'zlashuvchi xalqlarning madaniyati, urf-odatlari va qadriyatlari bilan ham tanishadilar. Bu esa boshqa madaniyatlarni tushunishni, ularga hurmat ko'rsatishni o'rgatadi. Xususan, o'quv jarayonida ingliz

tilidagi adabiyotlar, kino va san'at asarlari, xalqaro voqealar va ommaviy madaniyat tahlil qilinadi. Joriy etilgan bunday yangi yondashuvlar talabalarda turli madaniyatlarni qabul qilish, ular



bilan muloqot qilish va samarali ish olib borish ko'nikmasini shakllantiradi. Ta'lim jarayonida talabalar real hayotdagi turli vaziyatlarda ingliz tilida muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Masalan, talabalar ingliz tilida turli madaniyatlardan bo'lgan odamlar bilan muloqot qilishda turli axloqiy me'yorlar va til uslublarini

qo'llashni o'rganadi. Bu, ayniqsa, xalqaro aloqalar va biznes sohalarida zaruriy ko'nikmalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Institut talabalarida bunday ko'nikmalarni rivojlantirish, ularni jahon miqyosida faoliyat olib borishga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Institutda tashkil etilgan madaniyatlararo muloqot klublari va seminarlar, talabalar o'rtasida o'zaro fikr almashish, turli madaniy an'analarga haqida bahs yuritish va ingliz tilida o'z fikrlarini ifoda etish imkoniyatlarini

yaratadi. Bu usul talabalarga ingliz tilidagi muloqotda noan'anaviy va interaktiv yondashuvlarni kiritish, shuningdek, ular orasida madaniy farqlarni qabul qilish va tushunish ko'nikmalarini shakllantiradi. Joriy etilgan rol o'ynash kabi turli interfaol metodlar esa innovatsion yondashuvlar asosida qo'llaniladi. Bundan tashqari, institutda virtual muloqot va onlayn madaniyatlararo bahslar klublari tashkil etilgan.

Madaniyatlararo muloqot talabalarining bilim darajasini oshirib, ularni global miqyosdagi muammolarni yechishda faol qatnashishga tayyorlash bilan ahamiyatlidir. Yuqorida ta'kidlangan ilg'or yondashuvlarni qo'llash natijasida institut talabalari dunyo miqyosida muvaffaqiyatli muloqot qilish, mehnat bozorida o'z o'rnini topish va global jamiyatda faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Gulnigor YAZDONQULOVA,
SamDCHTI Innovatsion ta'lim texnologiyalari va metodika kafedrasini o'qituvchisi

• 18-oktabr — Samarqand shahri kuni

TURLI ATAMALAR-LA YER YUZI GAVHARIGA AYLANGAN MASKAN

AFROSIYOY

Afrosiyob tarixi, uning bugungi Samarqand bilan bog'liqligi, shahar tarixining ilk sahifasi ekanligini unutmashimiz zarur. Miloddan avvalgi IV asrda yunon bosqinchisi Aleksandr Maqduniy tomonidan bosib olingan Afrosiyob keyinchalik Maroqand, deb ham atalgan.

Afrosiyob bugungi Samarqandning shimoli-sharqiy hududi hisoblanib, umumiy maydoni 219 gektardan iborat tepaliklar, ochiq maydondan iborat arxeologik makondir. Uning hozirgi holati, joylashuvi bevosita Siyob arig'i hamda Siyob dehqon bozori atrofiga tutashib ketgan hududdan iboratdir.

Afrosiyobning dastlabki tarixi haqida yozma manbalarda ma'lumotlar juda kam uchraydi. Faqatgina arxeologik qazishmalar natijasida topilgan ashyolar bilan bog'liq ma'lumotlar uning tarixiga asos bo'lib xizmat qiladi.



Turkiston chor Rossiyasi tomonidan zabt etilgach, Afrosiyobni o'rganishga qiziqish kuchaydi. Bu qiziqishdan maqsad shu ediki, qadim shahar qoldiqlari hisoblangan tuproq ostida qandaydir boylik, tarixga doir ashyolar bo'lishi mumkinligini bosqinchilar juda yaxshi anglashgan. Shuning uchun ham bu yerda 1874-yilda harbiy Borzenkov rahbarligida ilk qazish ishlariga kirishiladi. Keyinchalik yana bir harbiy Krestovskiy, shuningdek, sharqshunos olimlar — Veselovskiy, Bartold, Vyatkin singari olimlar ham qazishma ishlarini olib borishdi. Bu izlanishlar natijasida tarixning turli davriga oid ashyolar topildi. Biroq, 1930-yilga qadar olib borilgan qazishmalardan qadim Samarqand tarixiga doir ashyolar juda kam topilgan.

Sovetlar davrida Afrosiyobni o'rganish jarayoni juda kengaydi. Bir qator olimlar tomonidan qadim shaharning qoldiqlarini o'rganishga jiddiy kirishildi. Qazishmalarning eng quyi qismidan eramizdan avvalgi VI—V asrlarga taalluqli bo'lgan buyumlar, uy-joy xarobalari topildi. Topilmalar Samarqand miloddan avvalgi VIII—V asrlarda so'g'diyananing bosh shahri sifatida vujudga kelganligidan dalolat beradi.

Qadim tarix sirlarini o'z bag'rida saqlayotgan Afrosiyob bugungi Samarqandning ilk o'tmishidan dalolat beruvchi maskandir. Hali bu maskan qatida yotgan tarix sirlarini to'liq ocholganimiz yo'q.

MAROQAND

Bu nom ham Samarqandning o'tmishi haqida hikoya qiluvchi tarixiy manbadir. Yunonlar qadim shaharni bosib olgach, uni o'z tiliga moslab Marokanda, deb ataganligi tarixdan yaxshi ma'lum.

Vaqt o'tishi bilan mahalliy xalq tiliga moslashtirish maqsadida Marokanda Maroqandga aylanib ketgan. Aslida Samarqandning nomi So'g'd yozma manbalarida Smarakansa, deb tilga olinadi.

Maroqand nomi XVII asrdan so'ng Yevropa tarixchilari tomonidan muomalaga kiritilgan. Arxeologik

izlanishlar natijalariga e'tibor qaratilsa, Maroqand miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda o'zining mustahkam mudofaa devorlariga ega bo'lgan qal'adan iborat shahar sifatida tilga olinadi.

Maroqandning shimoliy qismida shahar hukmdorining qarorgohi joylashgan. Sovetlar hukmronligi davrida olib borilgan qazishmalar natijasida bugun tariximiz marvaridiga aylangan devoriy suratlar topildi. Keyingi izlanishlar natijasida shaharning antik davriga xos bo'lgan tarixiga doir ko'plab ashyolar qo'lga kiritildi.

Maroqand milodiy IX asrgacha so'g'diycha Smarakansa, keyinchalik forsiycha Samarqand, IX asrdan so'ng esa Semizkent nomi bilan atalganligi manbalarda qayd etilgan. Shu davrdan so'ng Samarqand nomi shaharning atamasiga aylandi. Maroqand esa ko'hna shaharning Afrosiyob qismida joylashgan

shahar qoldig'i sifatida tarixga kiritildi.

SAMARQAND

Bu nomga yuqorida izoh berib o'tildi. Garchi, bu izoh to'la bo'lmasa ham tasavvuringizda Samarqandning o'tmishi haqida qisqacha tushuncha paydo bo'lgan bo'lsa, biz maqsad sari qadam tashlagan bo'lamiz. Zero, Samarqand o'tmishi, buguni bilan insoniyat tarixida o'z o'rniga ega bo'lgan tarixiy, madaniy markazdir.

Bu qadim maskan o'tmishda boshidan tarixning ne-ne sinovlarini kechirmadi, deysiz. Bugungi Samarqand qiyofasiga nazar solsangiz, uning har bir go'shasi, ko'chasi, osori-atiqalari tarixdan so'zlaydi. Yuqorida Afrosiyob va Maroqand misolida ana shu tarixning bir zarrasigagina nazar soldik, xolos.

Zamonaviy Samarqand ham bir asrning boy tarixini o'ziga jo etgan insoniyatning tamaddunlaridan biri hisoblanadi. E'tibor berganmisiz, Amir Temur bobomiz Sohobqironlik qilgan davrda Samarqandni o'z davlatining poytaxti sifatida ko'rib, Afrosiyobning janubida, hozirgi Siyob bozori atrofida bugun Eski shahar, deb ataladigan yangi Samarqandga g'isht qo'ygan edi. Chor Rossiyasi bosqiniga qadar eski shahar kengayib bordi. So'ngra hozirgi Bulvar, deb ataladigan maskan atrofida yevropacha uslubdagi "o'risshahar" paydo bo'ldi. Sovetlar davrida "o'risshahar" adog'idan o'z bag'rida ko'pqavatli uylarni joylashtirgan zamonaviy shahar vujudga keldi.

So'nggi yillarda esa zamonaviy, osmono'par binolarni o'z ichiga olgan Samarqand turizm markazi, Qorasuv singari maskanlar paydo bo'ldi. Yangi O'zbekistonning qiyofasini o'zida aks ettirgan yangi maskanlar qurilishi jadal davom etmoqda. Buyuk maqsadlar yo'lida tashlanayotgan qutlug' qadamlar hosilasi sifatida bugun shahar qiyofasi tanib bo'lmas darajada yuqori sur'at bilan o'zgarib boryapti. Ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma'rifiy jabhalardagi ijobiy o'zgarishlardan boshimiz ko'kka yetadi.

Q. XALILOV tayyorladi.

Ko'hna kent yasharmoqda

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada)

— Davlatimiz rahbarining tashabbuslari bilan shahrimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari uning ko'rk tarovatini yanada ortishi barobarida bu yerda istiqomat qilayotgan aholiga har tomonlama qulayliklar yaratishi bilan ahamiyatli bo'lmoqda, — deydi shahar hokimining o'rinbosari Feruz Najmiddinov. — Samarqandni millionlik shaharga aylantirish, aholi va sayyohlar uchun qulay sharoit yaratish borasidagi yirik dasturlar samarasida bir paytlar toshloq maydon bo'lgan Qorasuv massivida qariyb 100 ming aholi yashaydigan zamonaviy shaharcha paydo bo'ldi. Ayni paytda shu kabi yana bir yirik loyiha — Qoradaryo bo'yida "Shirin" ishbilarmonlik markazi qurilishi doirasida amalga oshirilmoqda. 665 gektar maydonni egallagan bu hudud turar-joylar, ma'muriy va biznes markazlari, ta'lim va tibbiyot muassasalari, ko'ngilochar maskanlar, shuningdek, zamonaviy transport va muhandislik kommunikatsiyalarini o'z ichiga oladi. Shaharchani barpo etish to'rt bosqichga bo'lingan bo'lib, birinchi bosqichda daryo ustida ko'priq qurilgach, uning ikki tomonidagi 100 gektar yer maydonida qurilish ishlari amalga oshiriladi.

Shuningdek, yillar davomida e'tibordan chetda qolgan temiryo'l orti hududida ham joriy yilda renovatsiya dasturi asosida amaliy ishtar boshlandi. Bu yerda 301 gektar maydonda yuz ming aholi uchun 31 mingta xonadon, shuningdek, zamonaviy loyihalar asosida maktab, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, ko'p tarmoqli tibbiyot markazi, oliy ta'lim muassasasi, sport sog'lomlashtirish maskanlari, ko'p qavatli avtoturargohlar, madaniyat va istirohat bog'lari, ekobozor, savdo va ko'ngilochar

markazlar barpo etiladi.

Albatta, shaharning kengayishi, aholi sonining o'sib borishi shunga mos infratuzilma yaratishni taqozo etadi. Shu maqsadda keyingi yillarda shaharda yangi yo'l va ko'priklar qurildi, mavjudlari kengaytirildi, shahar jamoat transporti



takomillashtirildi. Jumladan, Abu Dabi taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobidan shaharning Mirzo Ulug'bek va Gagarin hamda Rudakiy va Gagarin ko'chalari chorrahalarida ikkita tunnel va piyodalar uchun yer osti o'tish yo'laklari qurilmoqda. Hoziragacha bitta tunnelda ishlar yakuniga yetgan bo'lsa, ikkinchi obyektida qurilish ishlari jadal suratlarda davom etmoqda.

Shahardagi bunyodkorlik ishlari jarayonida aholining munosib dam olishi uchun zarur sharoit yaratishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda yangi istirohat bog'lari, yashil parklar, madaniyat maskanlari tashkil etilmoqda.

Masalan, Samarqand shahar O'zbekiston ko'chasidagi sobiq harbiy gospital o'rnida qariyb 5,5 gektar maydonda "Bolalar va yashil jamoat parki" barpo qilindi. Vatanparvar bog'i esa zamonaviy neoparkka


aylantirilmoqda. Shahar markazidagi Alisher Navoiy ko'chasini esa tunu kun faoliyat ko'rsatadigan turizm ko'chasiga aylantirish bo'yicha ishlar boshlangan.

Bugun turizm sohasi shahrimiz iqtisodining muhim bo'g'inlaridan biriga aylanib ulgurdi. Ushbu yo'nalishdagi amaliy ishlar natijasida Samarqand dunyoga Yangi O'zbekistonning turizm darvozasi sifatida namoyon bo'lmoqda. O'z navbatida sayyohlar oqimi ham yildan-yilga oshib bormoqda. Birgina joriy yilning 8 oyida Samarqandga 3,8 million mahalliy va 1,9 million xorijiy sayyoh kelgan. Bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 50 foizga ko'p demakdir. Ma'lumotlarga ko'ra, yil boshidan buyon turizm xizmatlari eksporti 427 million dollarni tashkil etgan. Turizmni keng ommalashtirishga qaratilgan 30 dan ortiq xalqaro festivallar, madaniy tadbirlar o'tkazilishi natijasida mavsumdan tashqari oylarda ham viloyatga 693 ming nafar xorijiy, 1,5 millionga yaqin mahalliy sayyoh tashrifi kuzatildi.

Albatta, bu ko'rsatkichlar dunyoga dong taratgan Samarqand uchun hali yetarli emas. Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida turizm sohasini rivojlantirish borasidagi maqsadlarimiz bundanda yuksak marralarga mo'ljallangan. Shahar kuni munosabati bilan ishga tushirilayotgan yangi ijtimoiy-iqtisodiy loyihalar orqali ushbu marralar yanada yaqinlashmoqda. Yuqori suratlarda davom etayotgan o'sish-o'zgarishlar bilan Samarqand o'z nomiga mos tarzda dunyo turizm markaziga aylanadi, albatta.

Alisher ISROILOV

• Madaniy aloqa



Portugaliya teatr san'ati shahrimizda

Shu oying boshida Portugaliyaning Braga shahri teatri ijodkorlari samarqandlik hamkasblari bilan uchrashdi.

Braga teatri Portugaliya teatr san'atining qadimiy maskanlaridan biridir. Boy tarixga ega bo'lgan teatr ijodiy jamoasi bugun Portugaliya san'atida o'z o'rniga ega. Braga teatri direktori Rui Madera hamda teatr liboslar bo'yicha yetakchi mutaxassisi Monuella xonim viloyat musiqali drama teatri ijodiy jamoasiga mahorat saboqlarini taqdim etishdi.

— G'arbiy yevropalik san'at ustalarining mahorati dunyoda yuksak qadrlanadi, — deydi viloyat musiqali drama teatri direktori Botir Tilgalov. — Hamkasblarimiz tomonidan taqdim etilgan amaliy mashg'ulotlarda jahon teatri an'analari, to'plangan mahorat yuzasidan keng tushunchaga ega bo'ldik. Uchrashuvda ikki teatr o'rtasida o'zaro anglashuv va ijodiy hamkorlik yuzasidan memorandum imzolandi.

Tadbir mobaynida mehmonlarga Samarqand teatrida sahnalashtirilgan "Behbudiy" spektakli namoyish etildi. Jadid bobomiz ijtimoiy, siyosiy, ma'rifiy hayoti haqida hikoya qiluvchi yangi asar yuzasidan mehmonlar iliq taassurotlarini bildirishdi.

Sarvinoz MAMANOVA

XALQ TILIDAN DAVLAT TILI SARI YUKSALGAN ONA TILIM

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada)

Bu ezgu maqsad nihoyat, 1989-yilning 21-oktabrida amalga oshdi: shu kuni ona tilimizga davlat tili maqomi berildi. Konstitutsiyamizning 4-moddasida bu maqom qonun asosida mustahkamlab qo'yildi.

Endilikda 130 dan ziyod millat va elat vakillari hamjihatlikda yashab, Vatanimizni qutlug' makon sifatida qadrlayotgan ekan, bunda davlat tilining ham o'z o'rnini, ma'naviy ta'siri, madaniy o'rni bor. Ba'zi mamlakatlarda davlat tilini o'rganish majburiy holatda joriy etilganligi sir emas. Avvalo, o'zga tillarni o'rganish uchun har bir fuqaroda ehtiyoj, qiziqish bo'lishi zarur. Mamlakatimizda davlat tilini o'rganish, unga amal qilish mutlaqo ixtiyoriy ekanligi, hech bir millat va elat tiliga bu jarayon salbiy ta'sir etishi mumkin emasligi tegishli huquqiy hujjatlarda belgilab qo'yilgan. Negaki, boshqa millat vakillari ham o'z ona tilida muomala-munosabatini tashkil etishi, ta'lim, milliy urf-odatlarini joriy etishga haqlidir. Yurtimizda buning uchun mustahkam qonuniy asos yaratilganligi xalqaro miqyosda allaqachon tan olingan.

Mamlakatimizda davlat tiliga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirish milliy yuksalishning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Bu borada Prezidentimiz tomonidan 2019-yil 21-oktabrda qabul qilingan "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi tarixiy farmonlari ona tilimizning tarixiy, ma'naviy o'rnini alohida belgilab berdi. Bu hujjatlarda

tilimiz soffligini asrash, uni xalqaro ilm-fan, axborot texnologiyalari, xorijiy davlatlar bilan munosabat tiliga aylantirish lozimligi ta'kidlandi.

Bugungi globallashuv jarayonida tilimiz yangi so'zlar bilan boyib bormoqda. Globallashuv, motivatsiya, renessans singari atamalar tilimiz, muomalamizdan alohida o'rin egalladi. Aslida, bunday atamalar soni Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Atamalar komissiyasi xulosasiga ko'ra 40 tadan oshadi. Muomalaga kiritilgan atamalarining aksariyatini ona tilimizda ifodalash imkoniyati bor. Masalan, "Renessans" atamasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu so'z aslida ona tilimizga mos tushmaydigan xorijiy atamadir. Izohli lug'atimizga ko'z yugurtirsangiz, atama xorijiy tildan kirib kelganiga ishonch hosil qilasiz. Ma'lumki, bugun "Renessans", deb atalayotgan davrga yaqin-yaqingacha "Uyg'onish" davri, deya ta'rif berilgan. X asrdan XV asrga qadar davom etgan Birinchi va Ikkinchi Uyg'onish davrlarining ilmiy, madaniy, ijtimoiy tamoyillari, poydevorlari bevosita bizning tuprog'imizda yaratilgan. O'sha davrda ham Uyg'onish davri tilga olinar ekan, uning ona tilimizda yangragan atamasi olimlar, ularning asarlarida o'z ifodasini topgan.

Yangi atamalar chet tilidan kirib kelar ekan, uning ona tilimizga shunchaki o'g'irmasdan, muqobil ko'rinishi bor-yo'qligiga e'tibor qaratishimiz lozim. Tilimizning boy imkoniyatlari, jarangdorligi eng muhimi, har bir so'zning bir necha ko'rinishi mavjudligi xoriydan kirib kelayotgan so'zlarning muqobilini topishga imkoniyat yaratadi.

Quvondiq MAJIDIY

SAMARQAND

Muharrir v.b: Olim SONNIBOYEV

Gazeta Samarqand viloyat matbuot va axborot boshqarmasida 06.09.2012-yilda 09-05 raqami bilan qayta ro'yxatga olingan. Indeks: 5505

Gazeta tahririyat matbaa bo'limida terildi va sahifalandi. Tahririyat matbaa bo'limi O'zbekiston matbuot va axborot agentligida 2.06.2017-yilda 18-3959 raqami bilan ro'yxatga olingan.

MUASSIS: Samarqand shahar hokimligi

Gazeta «Noshir Iyuks» MChJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Buyurtma: 480 Adadi: 3 000 nusxa.

MANZIL: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy.

TELEFONLAR: +998 66 233-58-40, +998 66 233-67-79.

Gazeta haftaning payshanba kuni chiqadi.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar muallifga qaytarilmaydi.

Sotuvda erkin narxda.

Navbatchi: Alisher ISROILOV

Sahifalovchi: Bekzod MUSURMONOV

Bosishga topshirish vaqti: 21.00.

Bosishga topshirildi: 21.00.